

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“ULISS” ROMANIDA DISKRETIK XRONOTOPNING NAMOYON BO‘LISHI

To‘ychiyeva Laylo,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktaranti

E-mail:toychiyevalaylo0@gmail.com

Tel.: +998976333882

Annotatsiya: Ushbu maqolada Irland yozuvchi Jems Joysning ijodi va uslubi tahlil qilingan. Bunda yozuvchining “Uliss sarguzashtlari” romanning badiiy xususiyatlari maxsus o‘rganilgan. Romanning syujeti, uslubidagi va xronotopdagi o‘ziga xos xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” romani. Badiiy uslub. Badiiy xronotop. Badiiy tasvir. Roman syujet. Badiiy kompozitsiya.

Abstract: Three articles analyze the work and style of the Irish writer James Joyce. The artistic features of the writer's novel "The Adventures of Ulysses" were specially studied. The peculiarity of the composition and style of the plot of the novel is highlighted. Key words: James Joyce. The chronotop. Adventures of Ulysses. Style. Chronotope.

Keywords: The Adventures of Ulysses by James Joyce. Artistic style. Artistic chronotope. Artistic image. Novel plot. Artistic composition

Абстрактный: В данной статье анализируется творчество и стиль ирландского писателя Джеймса Джойса. При этом отдельно исследуются и художественные особенности романа писателя «Приключения Улисса». Выделены особенности композиции и стиля сюжета романа.

Ключевые слова: Приключения Улисса Джеймса Джойса. Художественный стиль. Художественный хронотоп. Художественный образ. Роман сюжет. Художественная композиция.

Badiiy asarda sodir bo‘layotgan voqealarining haqqoniyligini ta’minlashda hamda muallif maqsadini amalga oshirishda asarda belgilab olingan zamon va makon munosabatlari asosiy vazifa bajaradi. Ushbu tushuncha badiiy adabiyotda xronotop deb yuritiladi. Xronotop atamasiga jahon adabiyotshunosligida bir qancha fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, rus adabiyotishunosi M.Baxtin roman janrining turli davrlari va turli bosqichlarini o‘rganib, xronotop atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “*Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop, deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llanilib kelinadi. Istilohning biz uchun matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma’noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda ifodalashidir*”.¹

¹ M Baxtin.Romanda zamon va xronotop shakllari.Toshkent.Akademnashr.2015y.24-bet

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘zbek adabiyotshunoslida roman janrida uchraydigan xronotoplar hamda ularning o‘ziga xosliklar borasida prof.U.Jo‘raqulov va boshqalar bir qancha tadqiqotlar olib borgan. Olim “*O‘zbek romanchiligining asoschisi A.Qodiriyning “O’tkan kunlar”idagi eng muhim va roman dunyosi uchun yangilik bo‘lgan jihatlaridan yana biri romanning xronotop tizimidir. Biz har qanday adabiy janr fazilatini syujeti va obrazlari mohiyatini bu nazariy tushunchasiz to‘la anglay olmaymiz*”, – deb yozadi.²

Xronotop asar voqealari hodisalarining ketma-ketligini ifodalovchi kompozitsiyaning bir unsuri hisoblanadi. Badiiy asarda xronotop butun bir jabhani qamrab oladi. Qahramonlar ruhiy holati, ichki kechinmalarining og‘riqli nuqtalari ma’lum makon va zamonda sodir bo‘ladi. Shunga ko‘ra xronotop asarning butun unsurlarini qamrab olishiga ishonch hosil qilsak bo‘ladi.

Badiiy asarda zamon va makon ba’zi o‘rinlarda mutanosib, bazan farqli ravishda kelishi mumkin. Farqli ravishda keladigan xronotoplar uchraganda asarni tushunish uchun biroz bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa kitobxonadan anchagina mas’uliyat va e’tiborni talab qiladi. Ba’zan voqealar fabulasi tadrijiylikni aks ettirmasdan uzuq-yuluq tarzda davom etadi. Ba’zan xona ichida yoki ustidan yopiq bozorda bo‘layotgan jarayonlar shiddat bilan ko‘cha yoki bog‘ga ko‘chgan holatini ko‘ramiz. E’tiborni tortadigan jihat shundan iboratki, har ikkala voqealari markazida turgan shaxs bir paytning o‘zida ham u yerda ham bu yerda paydo bo‘la oladi. Bu voqealar roviy tomonidan so‘zlanib turgan paytda tezlik bilan boshqa roviy va boshqa obraz tilidan avvalgi holatga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan boshqa voqeaga ulanib ketiladi. Bu asar o‘qish jarayonida o‘ziga xos uzuq-yulqlilikni yuzaga chiqishiga va noma’lum kemtiklik hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Xronotopning bu ko‘rinishiga olimlar to‘g‘ri chiziqli xronotop tipidagi uzuq-yuluqlik xronotop, ya’ni diskretik xronotop deb nom berishgan. Xo‘sh diskretik xronotop nima? Diskretik xronotop - xronotopning kichik ammo, asosiy unsurlaridan biri bo‘lib, voqealar fabulasiga juda jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Manbalarda diskretik xronotop quyidagicha tar’iflanadi: “Diskretik (lotinch. -bo ‘lingan, uzilib uzilib turadigan”, yani tezligi o‘zgarib (uzilib-uzilib) harakat qilib turuvchi vaqt”. Bu haqda adabiyotshunos M. S. Kagan “Zamon zikh tig ‘izlashishi, cho ‘zilishi, to ‘xtashi va ortga qaytishi mumkin... Ana shu asosda badiiy shartlilik deb atalmish badiiy shakl bilan real shakl o‘rtasdagagi masofa yuzaga keladi”, – deb yozadi.³ Bu masofa esa diskretik xronotopni namoyon etadi.

Badiiy asardagi zamon tushunchasi va real hayotda sodir bo‘ladigan zamon tushunchasi bir-biri bilan doim ham mutanosib kelavermaydi. Uni tenglashtirish yoki

² Jo‘raqulov U.Nazariy poetika masalalari.G‘.G‘ulom nomidagi nashriy matbaa-

³ To‘rayeva B.Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy tipologik tahlili.Toshkent.2022y.14-bet

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qaysidir badiiy zamoni real zamon bilan solishtirish, ildamlatish yoki oqsatish bu ijodkor istagiga bog‘liqdir. Irland yozuvchisi Jems Joysning “Uliss sarguzashtlari” romanida ham yuqorida aytib o‘tilgan diskretik xronotop shakllari ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Bu holat romanning deyarli har bir voqeasida namoyon bo‘ladi. 1-voqeada minoradagi holatlar 2-voqeadan Stevining maktabdagi faoliyati, 4- voqeada esa L. Blumning kundalik hayoti, uning nima istemol qilishdan tortib xotini Molli tasvirigacha, ish joyidan tortib gazetaxona va boshqa bir qancha voqealarga bir-biriga ulashib ketadi. 5- voqeada esa dafn marosimi va bu marosim bilan bog‘liq ko‘pgina holatlar, 6- voqeada dafn marosimining davomli ko‘rinishi. Roman shu tarzda davom etib. Uning har bir voqeasida diskertik xronotopga uyg‘un keladigan holatlar ko‘rinib turadi. Asarning 15- voqeasida diskretik xronotopning yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu epezd dastlab Leopold Blum va tramvay voqeasi bilan boshlanadi. Keyingi jumlalarda esa bolalar va telba kimsaning munosabati, shundan so‘ng piyanista otaning ortidan unga taqlidan ergashib ketayotgan bola aks etadi. Keyingi tasvirlarda Blum va otasi tasodifan, noqulay vaziyatda uchrashib qolishadi. “*Bunday joyda nima qilib yuribsan? Yo sening yuraging yo‘qmi? (Qaltiragan barmoqlar. Blumning tumsaygan yuzini paypalaydi.) Yoki sen mening o‘g‘lim emasmisan, Leopol o‘g‘li Leopold? Yo sen o‘z ota makonini tashlab ketgan ajdod-avlodlari Avram va Iakovning yagona ilohini qoldirib yot ellarga kelgan mening aziz o‘g‘lonim Lepoldmasmisan?*”⁴ Bunga javoban Blum uning o‘g‘li ekanligini ta’kidlaydi. Ammo, bu kabi bir qator ota va o‘g‘il suhbati tugagandan so‘ng otaning qayerga g‘oyib bo‘lgani haqida ma’lumot keltirilmaydi. “Uliss”ning aynan 15- voqeasidagi Blumning otasi bilan uchrashuvi Odessiy dostonidagi Odessiy va Telemaxning uchrashuviga monan kelishini ko‘pgina olimlar aytib o‘tganlar. Ushbu jarayonlar Ota va o‘g‘il munosabatlari negizidan boshlanib, so‘ngra Leopold Blumning xotini Molli tasviriga o‘tiladi. Molli Blumga nisbatan biroz arazlagannamo tarzda undan shikoyat qiladi. “*Yug‘e? Shu kundan e’tiboran, oltinim meni endi missis Merion deb chaqirasan. (Kulib) Bizning bechora erimiz ko‘p sayr-tomosha qilib oyoqlarini shamolatib qo‘ymadilarmi? Eh Poldi-Moldi to‘nkasan-da, to‘nka yo‘nilmagan! Sen hayotni ko‘rishing kerak!*”⁵ Molli aynan shu so‘zlarni nima sababdan aytayotgani, voqealar qayerda, qachon va kunning qaysi qismida sodir bo‘layotgani keltirilmaydi. So‘ngra Mollining paydo bo‘lishi-yu, qayerga g‘oyib bo‘lgani ham keltirilmagan. Xuddi Blumning otasi Rudolf tasviri kabi. Bu voqeada tugab ulgurmasdan Leopold Blum qovoqxona yonida qo‘shtmachi ayol bilan so‘zlashayotgan tarzda tasvirlanadi. Shunday vaziyatda Blum misses Brin bilan uchrashib qoladi. U bilan bir necha yil

⁴ J Joys. Uliss sarguzashtlari Toshkent.O‘zbekiston.2013.538-bet

⁵ J Joys. Uliss sarguzashtlari Toshkent.O‘zbekiston.2013.538-bet

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

avvalgi yangi yil kechasida bo‘lib o‘tgan va har ikkala qahramonning ham xotirasida hamon yashab kelayotgan voqealar bir-bir eslanadi: “...*O mana shu qiz Joz Paul edi. Dublinda ilk bora qanday chiqqan edi-ya! Vaqt shuncha tez o’tadi! O’tmishga shundoq bir artib bian boqib eslab ko’rmasmikinsiz, o’sha olisda qolgan yangi yil kechasini, Jorjina Simpson yangi uyga ko’chganini, ushanda Irnin Beshob bo‘lib o’ynagan edik, boshqalarning nima deb o’ylaganini topgan, ko’zlarimizni boylab to ‘g’nog’ich qidirgandik? Navbatdagi o’yinchiga qani top, bu qutichada nima bor?-derdik. Siz g’amgin-quvnoq qilib sher o’qigandingiz. o’sha ziyofat kechasida hammadan o’zib ketib birinchi bo’lgandingiz. Rolni qotirib o’ynovdingiz. sizni axir xotinlar ham yaxshi ko’rishardi*”.⁶

Shu kabi holatlar kechayotgan bir paytda voqealar tez sur’atda sud jarayoniga o‘tiladi. Blumning sudi. Bu sudda Leopald Blumga oqlab bo‘lmaydigan darajada ayblovlar qo‘yiladi. Blum aybsizligini hech qanday yo‘l bilan isbotlay olmaydi, epizod so‘ngida haqiqatdan ham bu gunohlarni Blum qilganligi oydinlashadi. Lekin muallif Blumning ayblari haqida avvalgi sahilarning biror yerida aytib o‘tmaydi.

Mana shunday sud jarayoni ketaturib tasvir obyekti yana boshqa tomonga burub yuboriladi. Blum va Missis Brindi xonimning suhbat jarayoniga o‘tiladi. keyingi o‘rinlarda yana boshqa holatlar. Bu jarayon epezdod so‘ngiga qadar muntazam davom etaveradi. Fikrlarimizni umulashtiradigan bo‘lsak, shu jarayonning o‘zida xronotopning bir qancha turlarini ko‘rish mumkin. Masalan, sud bo‘layotgan sud zali xronotopi, Birindi xonim va Blumning suhbatlashayotgan paytidagi ko‘cha xronotopi, misis Brindi xonim va Blumning hozir suhbatlashayotgan payti hamda yoshlik damlarida eslangan yangi yil kechasi. Dastlabki ikki holat makon xronotopiga misol bo‘lsa keying holatlar esa vaqt xronotopiga misol bo‘la oladi. Yuqorida bir necha o‘rinlarda diskretik xronotopning nomoyon bo‘lish usullarini ko‘rib o‘tdik. Olimlar shiddat bilan o‘rganayotgan diskretik xronotop uzuq yuluq voqealardan tashkil topgar ekan, o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, diskretik xronotop badiiy asarga nima maqsadda kiritiladi? Uning badiiy funksiyasi nimadan iborat? Voqealarning bu kabi zamon va makonda bir-biriga mutanosib kelmasligi kitobxonni biroz chalg‘itib qo‘ymasmikin?- degan savol tug‘uladi. Ushbu savollarga nisbatan Akmal Saidovning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “*Uliss*” boshdan-oyoq obdon o‘ylab chiqilgan va Joys uni sinchkovlik bilan kuzatib borgan. Jumladan unda roman tushunarsizligi elementi ataylab oldindan mo’ljallab qo‘yilgan: bu- yozuvchi fikricha o’quvchining roman bilan munosabatlarining bir qismi. Shundayin bu tushunarsizlikni e’tirof etsa bo‘ladi. Biroq “*Uliss*”da tushunarsizlik elementining ishtiroki qonuniy bo‘lsa,

⁶ J Joys. Uliss sarguzashtlari Toshkent.O‘zbekiston.2013.544-bet

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*demakki, o‘quvchining bu elementni eng kichik miqdorgacha olib kelishga bo‘lgan harakati yanada qonuniyoqdir”.*⁷ Bundan kelib chiqadiki, “Uliss”da tushunarsiz holatlar shunchaki keltirilmagan. Ular ayni ijodkor rejası asosida asarga kiritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, baddiy asar o‘qiyotgan kitobxon asarni ikki xil tarzda tushunadi va talqin qiladi. Dastlab kitobni o‘qish jarayonida zohiriyl tushunchalar paydo bo‘ladi; keyingi bosqichda esa, bilimlar ko‘nikmalar umumlashib botiniy xulosaga kelinadi. Biz bekorga birinchi fikrimizni tushuncha, ikkinchisini esa xulosa deb atamadik. Albatta, asarni o‘qish jarayonida avval tushunchalar paydo bo‘ladi, ular tobora toblanib xulosani hosil qiladi. Kitobxon zohiriyl tushuncha fog‘onasini bosib o‘tmas ekan, uning botininy xulosasi qoniqarli bo‘lmaydi, asardan ko‘zlangan marraga yetib borolmaydi. “Uliss” romanining deyarli boshidan oxirigacha uni ta’qib qilib turadigan diskretik xronotop aslida ma’lum ma’noda tirkak vazifasini bajarish uchun asarga olib kirilgan. Ularning har biri ijodkorning qaysidir maqsadinin amalga oshirishda foydalangan. Romandagi L.Blooming bir kunda boshidan o‘tayotgan turfa xil voqealar, u tushayotgan ming xil vaziyatlar shu holat bilan bog‘liq boshqa vaziyatni tasvirlash uchun xizmat qiladi. Romanning 1-voqeasidan 18-voqeasigacha bu holat davom etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki shunchaki xronotopdagagi bu nomutanosiblik boshqa vaziyatlarni yuzaga chiqarishda bir asos vazifasini bajarishi uchun ijodkor istagi hamda asar talabi bilan o‘ylab topilgan jarayondir. Zero “Uliss” mohir tarjimon Ibrohimm G‘afurov aytganidek o‘zi bilan o‘zi kurashib yotgan odam siymosini aks ettiradi. Buni anglash uchun kitobxon e’tibor bilan romanni boshidan oxirigacha diqqat qilib o‘qimog‘i lozim. O‘quvchi “Uliss”dan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun, shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymasdan asarning har bir so‘zini sinchkovlik bilan, chegarada turgan askardek sergak bir tarzda o‘qimog‘i darkor. Zero, Pasternak tabiri bilan aytganda “Uliss”ni o‘qimoq uchun “Tirik bo‘lmoq kerak” shundagina Jems Joys “Uliss sarguzashtlari” romani bilan kitobxonga nima bera olishini bilib olish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jems Joys. Uliss sarguzashtlari. Roman. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
2. Джеймс Джойс. Дублинцы. Рассказы. Портрет художника в юности. Роман. – Москва: Знаменитая Книга, 1993.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Jo‘raqulov U. O‘zbek romani genezisi. – Toshkent: Nurafshon business, 2022.

⁷ Akmal Saidov “Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish”. Toshkent 2020-y

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

6. Saidov A. Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2020.
7. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2012. № 11
8. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009. № 9
9. “Sharq yulduzi” jurnali. 2010. № 1
10. “Yoshlik” jurnali, 2016 yil 3-son.